



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

QALQONSIMON BEZ KASALLIGIGA CHALINGAN BEMORLARNING KASALLIKKA MUNOSABATI

Shahnoza rajabboy qizi Jumaniyozova

*Urganch Davlat Universiteti Psixologiya
(faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi magistranti*

Annatsiya: *Ushbu maqolada qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemorlarning JSST statistikasi bo'yicha ma'lumotlar, mamlakatimiz hududida kasallikning tarqalishi, kasallikka chalingan bemorlarning kasalligiga munosabati, bir qator olimlar tomonidan bemorlarning kasallikka munosabati qanday turlarda bo'lishi o'z ilmiy izlanishlari natijalari bayon qilingan.*

Аннотация: *В данной статье информация о статистике ВОЗ больных с заболеваниями щитовидной железы, распространение заболевания на территории нашей страны, отношение больных заболеванием к своему заболеванию, результаты их научных исследований о типах отношения больных болезни рядом ученых описаны.*

Annotation: *In this article, information about the WHO statistics of patients with thyroid diseases, the spread of the disease in our country, the ratio of patients with the disease to their disease, the results of their scientific research on the types of attitudes of patients with the disease are described by a number of scientists.*

Kalit so'zlar: *senzitiv, emotsional, intellectual, do'stona reaksiya, Tinch reaksiya, anglanmagan reaksiya, gumonsirovchi reaksiya, Sarosima, vahimali reaksiya, buzg'unchi reaksiya, kompensatorli xarakterli, psevdokompensatsfli xarakterli, autieatsiya bilan diskomfortdan qochish, nevroitik reaksiyalar.*

Ключевые слова: *чувствительная, эмоциональная, интеллектуальная, дружелюбная реакция, спокойная реакция, неосознанная реакция, подозрительная реакция, спутанность сознания, боязливая реакция, деструктивная реакция, компенсаторный характер, псевдокомпенсаторный характер, избегание дискомфорта с аутией, невротические реакции.*

Keywords: *sensitive, emotional, intellectual, friendly reaction, Calm reaction, unconscious reaction, suspicious reaction, Confusion, fearful reaction, destructive reaction, compensatory character, pseudocompensatory character, avoidance of discomfort with autieation, neurotic reactions.*

Bugungi kunda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) yod tanqisligini o'tkir global tibbiy-ijtimoiy va demografik muammo deb hisoblaydi, chunki,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

O'zbekistonning butun hududini o'z ichiga olgan endemik hududlarning (130 dan ortiq mamlakatlarda) barcha aholisi YTK rivojlanish xavfi ostida yashaydi.

Mazkur tashkilotning xulosasiga ko'ra, dunyo aholisining 1/3 qismidan ko'prog'ida YTK rivojlanish xavfi yuqori, shu bilan birga 740 million aholida YTK (bo'qoq) ko'rinishlari mavjud bo'lsa, 50 million aholi miya disfunktsiyasi va aqliy zaiflikka ega. Hozirga kelib, O'zbekiston sharoitida aholisi yod tanqisligi bilan bog'liq kasalliklarga chalinish xavfi bo'lmagan hudud yo'q, negaki respublikaning shu kungacha o'rganilgan barcha hududlarida aholi rasionida yod tanqisligi mavjudligi kuzatilgan.[3]

Shu sababli 2022-yil 26-yanvarda №PQ-102 "Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va ko'lamini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida" Prezidentning qarori qabul qilindi. Qarordan ko'zlangan maqsad aholiga ko'rsatilayotgan endokrinologik yordamning samarali hamda zamonaviy tizimini shakllantirish, kasalliklar va ularning profilaktikasini takomillashtirish, aholiga yuqori malakali endokrinologiya yordamini ko'rsatish sifatini hamda ushbu yo'nalishdagi tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish nazarda tutilgan[4].

Qalqonsimon bez kasalliklari psixosomatik kasalliklar sirasiga kirib, kasallikni paydo bo'lishida asosiy omillardan biri ruhiy omillar sabab bo'lishiga buyuk alloma Ibn Sino o'z tajribalari va qarashlarida yorqin isbotlagan.[1]

Insonning kasallikka munosabatini uning salomatlikka munosabatidan ayro sifatida qarash mumkin emas, shunga ko'ra bemor pozitsiyasini baholash uchun salomatlikning ichki manzarasini tahlil qilish zarur. Bu tushunchaning shuningdek, sezitiv, emotsional, intellektual va xulqiy tomonlarini ko'rib chiqish kerak. Bularning barchasi har bir mutaxassisning diagnostik usullarni tanlashda albatta kasallikning ichki manzarasini va bemor odamning kasallikka munosabati tadqiqotini o'tkazish zaruratini talab qiladi. Kasallikka garmonik munosabatning muhim belgiparidan biri kasallik momentida insonning xulqi boshqa insonlarning hayotini izdan chiqarmasligi (qarindoshlarining, hamkasblarining, do'stlarining, vrachlarning), ularning unga yordam berishiga xalaqit qilmasligidir.

Bemorning o'z kasalligiga reaksiyasini 3 taga ajratish mumkin: stenik, astenik va ratsional. Bemorning tekshirish va davolashda faol pozitsiyada bo'lishini stenik reaksiyaga kiritiladi. Bu xulqning negativ tomoni ham borki, bemor kasallik zarar keltiradigan, hayot stereotiplaridagi zaruriy cheklamalarni bajarishga zaif qobiliyatli bo'lishi mumkin. Bemorlarning kasallikka astenik reaksiyalari pessimizm va gumonsirashga moyiplik mavjudligi bilan izohlanadi, lekin ular stenik reaksiyadagi bemorlarga nisbatan engil kasallikka moslashadilar. Ratsional



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

reaksiya tipidagi bemorlar vaziyatni real baholash va frustratsiyadan ratsional chiqib ketish o'rniga ega.

Bir qator mualliflar (N.I.Reynvald, A.D.Stepanov, L.N.Lejepekova, P.YA.YAkubov) kasallikka munosabat tipini vrach va bemor orasidagi shakllangan o'zaro aloqalar ko'rinishi xarakteriga ko'ra izohlaydilar. Jumladan, B.A. YAkubov kasallikka shaxsii reaksiya tiplarini quyidagicha ajratadi:

1. Do'stona reaksiya - intellekti rivojlangan insonlar uchun xos bo'lib, ular kasallangandan dastlabki kunlardanoq vrachning "assistenti"ga aylanadilar, vrachning har bir ko'rsatmasiga diqqat bilan qaraydilar, o'z vrachiga chegarasiz ishonadilar va yordami uchun davolovchi shifokoriga o'z minnatdorchiligini bildiradilar.

2. Tinch reaksiya – barqaror emotsional-irodaviy jarayonlarga ega insonlarga xos bo'lib, vrachning barcha ko'rsatmalarini tizimli, adekvat qabul qiladilar, davolanish-salomatlik tadbirlarini aniq amalga oshiradilar. Ular nafaqat tinch, balki o'zlarini "salobatli" va "bosiq" tutib, tibbiy personallar bilan oson apoqaga kirishadilar. Ba'zida o'zlarining kasalliklarini anglamasligi, vrachga psixikaning kasallikka ta'sirini aniqlashga to'sqinlik qiladi.

3. Anglanmagan reaksiya - Bu reaksiya patologik asosga ega bo'lib, ko'pgina holatlarda psixologik himoya rolini bajaradi va bu himoya shaklini hamisha ham to'g'ri kelavermaydi, ayniqsa muvaffaqiyatsiz yakunlanadigan og'ir kasalliklarda kerak emas.

4. Gumonsirovchi reaksiya - bemorlrgda doimo gumonsirash va ishonmaslik holati mavjud bo'lib, qiyinchilik bilan davolovchi vrach bilan aloqaga kirishadi, uning ko'rsatmalari va maslahatlariga jiddiy e'tibor qaratmaydilar. Ularda tez-tez tibbiy personallar bilan konfliktlar bo'lib turadi. Psixik sadomatligiga qaramasdan, ular "ikkilangan qayta mo'ljal olish"ga yo'naltirilgan bo'ladi.

5. Sarosima, vahimali reaksiya - bemorlar qo'rkuv iskanjasida bo'lib, oson ta'sirlanadigan, ko'tancha tartibsiz, bir vrachni ikkinchi vrach bilan tekshirish uchun bir vaqtning o'zida turli davolash muassasalarida davolanadilar. Ularning harakatlari noadekvat, xatoli, affektiv bgfqarorlik kasb etadi.

6. Buzgunchi reaksiya – bemorlar o'zlarini davolovchi vrach ko'rsatmalarini pisand qilmasdan adekvat, ehtiyotkorsiz tutadilar. Bunday insonlrg doimiy hayot tarzini, kasbiy yuklamalarini o'zgartirishni hoxdamaydilar. Bu statsionar davolanishda dorilarni qabul qilishni rad qilish bilan kuzatiladi. Bunday reaksiyaning oqibati ko'pincha muvaffaqiyatsiz bo'ladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

N.D.Lakosin va G.K.Ushakovlarning munosabat tipologiyasi tiplar klassifikatsiyasi asosidan olingan kasallikdan frustratsiyalanadigan ehtiyojar tizimiga ajratiladi: vital, umumiy-kasbiy, axloqiy yoki intim hayot bilan bog'liq.

Boshqa mualliflar, shu jumladan, DG.Burn va boshqalar fikricha kasallikka reaksiya kasallik prognoziga shartlanadi.

Har qanday holatda shaxs kasalligining turli ko'rinishlari va o'zgargan o'z-o'zini his qilishni yengish maqsadida, kompleks adaptatsion (moslashuvchan) usullar ishlab chiqiladi. E. A. Shevalev va GS V.Kerbikov ularni kompensatorli (muloqotning suniy chegaralanishi, simptomlarning ongosti niqobi, kun tartibining, ish xarakterining ongli o'zgarishi va boshqalar), shuningdek, psevdokompensatsfli xarakterli (kasallikni inkor qipish va mensimaslik) adaptatsiya reaksiyalari sifatida aniqlaydi. Boshqacha aytganda, bemor o'z kasalligi konsepsiyasi asosida aniq tarzda doimiy yashash tarzini, o'zining mehnat faoliyatini o'zgartiradi va shunga ko'ra har xil turdagi somatik kasalliklar inson uchun bir bir qolipdagi hayotiy ahvolni yaratishi mumkin.

Kasallikka munosabat tipining chex olimlari R. Konechnsh va M. Bouxallar kasallikka munosabat tipining nisbatan "me'yoriy" holatini ular quyidagilarga ajratadi:

- bepisandlik (kasallikning jiddiyligini past baholash, davolanish bo'yicha tavsiyalarni mensimaslik, kasallik bashoratiga asossiz optimizm,);

- inkor qiluvchi (dissimulyasiyani qo'shgan holda kasallik faktini mensimaslik);

- nozofobiyali (bemor kasapi bilan bog'liq xavfni tushungan holda, bo'rggirish, leki ularni engish holatvda emas);

- ipoxondrik (bemor asossiz ravishda og'ir kasalliqdan aziyat chekishini payqagan yoki amin bo'lgan, yoki kasallikning jidiydigin oshirgan);

- nozofipli (bemor kasallik uni yoqimsiz majburiyatlardan ozod qilganligidan qoniqish oladi);

- utilitar (nozofil reaksiyalarning yuqori ko'rinishi- kasallikdan ma'naviy yoki moddiy foyda olish).

R. Barker kasallikka munosabatning 5 tatipini ajratadi.

- autieatsiya bilan diskomfortdan qochish (intellekti yuqori bo'lmagan bemorlar uchun xos),

- hayotiy maqsadlarga erishishning yangi usullarini topish bilan almashtirish (yuqori intellektga ega kishilar uchun xos),

- kamchilikni tan olish bilan o'rin almashgan mensimaydigan xulq (o'rtacha intellektli, lekin yuqori ma'lumotli darajali kishiga xos),



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

- kompensatorli xulq (atrofdagilarga noadekvat kechinmalarning agressivli tendensiyaga o'tishi va boshqalar),
- nevroitik reaksiyalar.

Kasallikning ichki manzarasi mazmunida nafaqat hayotiy vaziyatlar (kasalik vaziyati), balki bemor shaxsining premorbid (kasallikkacha) xususiyatlari, xarakter, temperamenti ham aks etadi. Shaxsning premorbid xususiyatlari bemorlarning u yoki bu kasallikka munosabat shaklining paydo bo'lishi afzalligini tushuntirib beradi [2].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibodullayev.Z. Tibbiyot Psixologiyasi. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT IQTISOD-MOLIYA» 2008
2. Urazbayeva.D.Onkologik bemorlarga psixologik yordam ko'rsatish.Tosh.-2017
3. UZREPORT.AOKAda o'tkazilgan brifing.2022.iyun
4. Lex.uz. 2022-yil 26-yanvarda №PQ-102 "Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va ko'lamini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida" Prezidentning qarori